

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

ISSUE 10
ОCTOBER

Journal of

RESEARCH and INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ


JORAI

Technology

Architecture

Philology

Geography



IMFAKTOR
PAGES

2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

**ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР
ЖУРНАЛИ**
I-ЖИЛД, 10-СОН

**ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-10**

**JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-10**

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-10>

Бош мұхаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул мұхаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

1. Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
2. Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
3. Якубжон Хатамович Юлдашов – қишлоқ хўжалик фанлари номзоди, профессор,
4. Камалова Дильфузә Энуаровна – филология ф.б.ф.д (PhD)
5. Раззақов Шухрат Турсунович – техника фанлари номзоди, доцент
6. Чоршанбиев Шухрат Махматмуродович – техника ф.б.ф.д. (PhD), доцент
7. Нематов Эркинжон Ҳамроевич – техника ф.б.ф.д (PhD), доцент
8. Бобокалонов Одилшоҳ Остонович – филология ф.б.ф.д (PhD)
9. Абдуллаева Садокат Шоназаровна – техника ф.б.ф.д (PhD)
10. Шарипов Козимжон Комилжонович – техника ф.б.ф.д (PhD)
11. Норматов Ғайрат Алижанович – техника ф.б.ф.д (PhD)
12. Бозорова Гульмира Зайниддиновна – филология ф.б.ф.д (PhD)
13. Убайдуллаев Фарход Бахтияруллаевич – қишлоқ хўжалиги ф.б.ф.д (PhD)
14. Каримова Диляфрӯз Ҳалимовна Филология – филология ф.б.ф.д (PhD)
15. Маҳмудова Муаттар Мақсатуллаевна – филология ф.б.ф.д (PhD)
16. Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна – филология фанлари доктори

“Тадқиқот ва инновациялар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал 6 та ҳалқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.1 “импакт-фактор”** кўрсатгичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Ҳасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-үй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

NIZOMOVA Shoxista Shodiyevna

Buxoro davlat universiteti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrasи

dotsenti, (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10044777>

SHAVKAT RAHMON SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON KECHINMALARINING IFODALANISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotiga yangi ko‘rinishdagi she’riyat namunalarining o’ziga xos xususiyatlarni olib kirgan Shavkat Rahmon she’rlarini ilmiy-nazariy jihatdan maxsus tadqiq qilish, bu davr adabiyotining umumiylarini tarixiy manzarasi, adabiyot rivojiga qo’shgan hissasini aniqlash, xususan, ijodkor she’riyatida lirik qahramon kechinmalari hamda poetik mahorati ifoda etilgan.

Kalit so’zlar: o‘zbek adabiyoti, poetik ifoda madaniyati, ijtimoiy voqelik, Shavkat Rahmon she’rlari, lirik qahramon, obraz, davr va makon.

ЛИРИЧЕСКИЙ ГЕРОЙ В ПОЭЗИИ ШАВКАТА РАХМАНА ВЫРАЖЕНИЕ ПЕРЕЖИВАНИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье стихотворения Шавката Рахмана, привнесшего в узбекскую литературу уникальные черты поэтических образов XX века, с научно-теоретической точки зрения составляют общий исторический ландшафт литературы этого периода, что способствовало развитию литературы, определив вклад, в частности, переживания лирического героя и поэтическое мастерство выражены в поэзии художника.

Ключевые слова: узбекская литература, культура поэтического выражения, социальная реальность, стихи Шавката Рахмана, лирический герой, образ, эпоха и пространство.

LYRICAL HERO IN SHAVKAT RAHMAN’S POEM EXPRESSION OF EXPERIENCES

ANNOTATION

In this article, the poems of Shavkat Rahman, who introduced unique features of poetic samples of the twentieth century into Uzbek literature, from a scientific and theoretical point of view, constitute the general historical landscape of literature of this period, which contributed to the development of literature, determining the contribution, in particular, of the experiences of the lyrical hero and the poetic skill is expressed in the artist's poetry.

Key words: Uzbek literature, culture of poetic expression, social reality, poems by Shavkat Rahman, lyrical hero, image, era and space.

O'zbek she'riyatining yorqin namayondalaridan biri, iste'dodli shoir Shavkat Rahmon she'riyatining o'ziga xosliklarini tahlil qilish orqali, shoir she'riyatidagi lirik qahramon va kechinmalar ifodasini ko'rsatishdan iboratdir.

Asosiy qisim. Adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: "Iste'dodlarning san'atkorligi – bu bashariy qadriyatga, umumbashariy madaniyatga daxldor ilohiy hodisa. U qo'l bilan ushlanadigan, ko'z bilan ko'rildigan oybolata-yu belkurak emas. U shuurimizga tafakkur yog'dularini olib kiruvchi, tuyg'ularimizni tarbiyalovchi, ko'ngil ma'rifati, ma'naviyat hikmati". Qayd qilingan bu tushunchalarga asoslanib, Shavkat Rahmon she'riyati ma'naviyatimizni, tafakkurimizni yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini ta'kidlash zarur.

90-yillar o'zbek she'riyatida ijodkorlarning kechinmalari va ruhiy holatiga e'tiborning kuchayishi shakliy izlanishlarning ko'payishiga olib keldi. 80-yillar she'riyatida bo'y ko'rsata boshlagan bu holat 90-yillarga kelib, yosh ijodkorlarning deyarli barchasida namoyon bo`la boshladи. Shakliy izlanishlar samarasи bo'lgan va o'zbek kitobxoni ko'nikib ulgurmagan asarlar o'quvchilar tomonidan har xil kutib olindi. Haqiqiy iste'dod egasi uchun kitobxonning talab va xohishi yagona mezon bo`la olmaydi. Oddiy kitobxon saviyasiga moslashish adabiyotni taraqqiyotga emas, tanazzulga yetaklashi ham mumkin. Ijodkor o'zi egallab turgan cho'qqidan kitobxon tomon tushmasligi, aksincha, uning saviyasini ko'tarishga harakat qilishi lozim. Bahrom Ro'zimuhammad, Zebo Mirzayeva, Iqbol Mirzo, Isroil Subhoniy, Rustam Musurmon, Salim Ashur, Faxriyor, G'ulom Mirzo, Abduvohid Hayit she'riyatida ayni holatni kuzatish mumkin [1].

Bu ijodkorlar she'rlarida ijtimoiy voqelikni real tasvirlashdan ko'ra, ifodaning ta'sirchan, kutilmagan bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratdilar. O'zgarishga yuz tutgan 90-yillar she'riyatida o'quvchiga shoirning o'zi ham izohlab, to'la tushuntirib berishi qiyin bo'lgan she'rlarda dunyoga keldi. XX asr adabiyotining otashnafas va millatparvar shoirlaridan biri Shavkat Rahmondir. U o'zining bor yo'g'i 46 yillik umri davomida o'zbek she'riyati va she'rxonlari yuragida o'chmas iz qoldirib ketdi.

Shavkat Rahmon 1950-yil go'zal va bahavo O'shda tavallud topdi. Kindik qoni to'kilgan bu tuproqni shoir ijodi boshlangandan, oxirgi nafasiga qadar kuylab o'tdi. U ijodini endigina boshlab yozgan «O'shkent lahzasi» she'rida shoir shunday yozadi:

*Oq cho'qqilar, shafaqqa so'ylar,
Yashillikka ko'milgan mohtob.
Moviyo yosmon yoyilmasida,
Suzar ulkan olmaday oftob [3].*

Mana, ko'rib turganimizdek, shoir o'ziga xos mahorat bilan O'shkent manzarasi, uning cho'qqi-yu soyi, oy-u quyoshini chizib beradi. Uning ilk she'rlari «Orzu tasbehi», «Manzara», «Esdalik», «Mashq», »Dastxat» kabi she'rlari dastlab gazeta va jurnallardan, keyinchalik to'plamlardan joy oldi. Bundan tashqari uning to'rt fasldan iborat «Fasllar», «Gullayotgan tosh», «Visolsiz ishq» kabi o'nlab to'plamlari mavjud. Shoir Shavkat Rahmon vafotidan so'ng 1997-yilda Nabijon Boqiy va Askar Mahkamovlar muharrirligida «Saylanma» to'plami nashr etildi. Kitobdan faqat ilgari chop etilgan to'plamlardan tanlangan lirik-falsafiy she'rlargina emas, balki O'zbekiston mustaqilligi arafasida va undan keyin, o'lim to'shagida qog'ozga tushirilgan she'rlari ham o'rin olgan.

XX asr adabiyotida minglab shoirlar o'tdi. Lekin shu bugunimizga kelib ulardan bor yo'g'i o'n - o'n beshtasining nomi abadiylikka muhrlandi. Qolganlari esa asta-sekinlik bilan birin-ketin e'tibordan, nazardan chekkaga chiqib qolmoqda. H.Olimjon, Oybek, Zulfiya, R. Parfi, A.Oripov, E.Vohidov, U.Azim, M.Yusuf, Sh. Rahmon kabi betakror iste'dod egalarining ijodi bunga yorqin misoldir. Ushbu shoirlarning she'rlari abadiyatga muhrlandi. Bularning lirik kechinmalari tabiiy va samimiy, o'tkir va shafqatsiz, haqiqatparvar va ma'rifatparvarlik bilan sug'orilganlidadir.

*Ko'zлari chaqmoq tulpor,
Tuyog'i chaqmoq tulpor.
Suvliq lablarin yirtgan,
Yolları bayroq tulpor [3].*

Ko'zлари чагмоқдек юніб, туюqlaridan o't chaqnab, lablarini yirtib, shamollarda yollarını bayroq qilib, necha-necha arslardan, dovonlardan oshib kelayotgan she'riyat tulporini ko'z oldimizda jonlantiramiz. Uning izlaridan nurlar, gullar unayapti. Quyoshdek lovullab, yonib, zulmat pardalarini yirtib tundan ajralib osmonga intilayapdi. Bularning hammasi to'lqin urib kelayotgan shoir tuyg'ularidan to'kilayotgan satrlardir. Usmon Azimning yuqorida qayd qilingan misralarida lirik kechinma asosini shoir tomonidan tanlab olingan dardli tuyg'ularni o'zida mujassamlashtirgan. Zamondosh shoirlarning lirik kechinmani aks ettirish jarayonidagi o'ziga xos usullari mavjuddir.

Shu jihatdan, Shavkat Rahmonning bunday natijalarga erishuvida xalqning dilida turgan dardni teran ilg'ab olganligida va Xudo bergen iste'dodi borligida ko'rindi [2].

Iste'dod tufayli shunday martabalarga, yuksaklikka erishish mumkin. Shoir har qanday mavzuda qoyilmaqom qilib she'r yoza oladi. Muhabbatni tarannum etadimi, Vatanni kuylaydimi, nima haqida yozmasin u qo'shiqqa aylanib, xalq diliiga kirib boradi.

She'riyat asrlar davomida mohir san'at sifatida insonning ruhiy dunyosini kashf etishga intilib kelgan. To'g'rirog'i, poetik ifoda madaniyati odamzod orzu-istiklari, maqsad intilishlarini betakror estetik mezonda baholash garovidir. Shunday ekan, hamisha sir-sinoatlarga oshno nazm tabiatini tahlil hamda tadqiq etish kuchli ma'naviy ehtiyojlarni keltirib chiqaraveradi. Ayni paytda, mazkur xususiyat badiiyatiga ta'sir o'tkazadigan ichki va tashqi omillarni ilmiy asosda o'rganish, uni idrok etish hamda anglashga zamin hozirlaydi. Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq. Shu o'rinda quyidagi satrlarda ham buni ilg'ab olish mumkin:

*Bu qarovsiz gulzor ichida
Gazandalar gurkirab o'sar,
Kunduzlari quyosh shu'lasin,
Kechalari oy yog'dusin to'sar [3].*

Darvoqe, uning ruhi, fikri hur bo'lganligi bois doimo harakatdadır. Shaxs har qachon adolat tomonida turib kurashishga intiladi. U ezilgan xalqning ozodligi yo'lida jang qilganidek, o'z millatining o'zgalar ustidan hukmronlik o'tkazishiga ham rozi bo'lmaydi. Shaxs o'z xudbinlik qobig'ini yorib chiqqan zot hamdir.

U faqat o'zinigina o'yashdan nihoyat uyalgan, o'zgalar to'g'risidagi tashvishga esa ehtiyoj sezaga boshlagan kishidir. Shaxs yaxshilik qilib, baliqning bilish-bilmasligidan qat'iy nazar daryoga tashlab ketaverishi mumkin. Zero, uning karami o'zgalar maqtoviga muhtoj emas. Shaxs o'zini o'zi tanqid qiladi, ayovsiz tanqid qiladi, shafqatsiz jazolaydi. Shunday ekan, adabiyotimiz tarixida shaxslar qiyofasidagi zotlar bo'lganidek ibrat olsa arzigelik shaxslar bo'lgan. Shoirlar butun bir millat yo'lini o'zgartirib yuborgani ayni haqiqatdir. Uning da'vatida esa minglab, miliyonlab taqdirlar qismati mujassam bo'ladi. Shoirlar dunyonи boshqacha tasavvurda ko'radi. Ezgulik va yaxshilik bilan harakatda bo'ladi. Ko'ngil pokligi, ruhiy xotirjamlik, millat istiqboli yo'lida jonfidolikni talab etadi. Va shunday yashamoqni isbotlaydi, o'rgatadi [1].

O'zbek adabiyotining hali hanuz dillarni hayajonga solib kelayotgan shoiru adiblari borki, ayni XX asr adabiyotidek porloq, keljak sari talpingan zotlar boshqa davrlarda juda kamdan kam topiladi. Ayniqsa, Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Qahhor, H.Olimjon, Zulfiyaxonim, Mirtemir, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi haqparvar va millatimiz yorqin yulduzlari borki, endigi adabiyot uchun hali hamon asos va chuqur ibrat maktabi bo'libgina qolmay, mustaqillik davri yoshlarini ham shunday baxtiyor tuyg'ular ila kamol topishida kamarbasta, fidoyi ustoz bo'lib kelmoqdalar.

Shavkat Rahmonning ayrim badiiy san'atlarni (*o'xshatish, antiteza, tanosib, mubolaga, talmeh, jonlantirish*), shuningdek, poetik sintaksisning she'riyatda ko‘p uchraydigan muhim unsurlaridan bo‘lmish badiiy takrorlarni qo‘llashdagi mahorati, ularni qo‘llashda shoirning o‘ziga xosligi, mazkur badiiy tasvir vositalarining shoir ijodiy konsepsiyasi, lirik qahramon ruhiyati qirralarini ifodalashdagi o‘rni va ahamiyati tahlillar asosida imkon qadar yoritildi.

Shavkat Rahmon she'rlerida ko‘p uchraydigan badiiy san'atlardan biri tashbexdir. Bu usul shoir mahoratini, badiiy tafakkur olamini belgilovchi asosiy tasviriy vositalardandir. Shoир tashbexlari o‘ziga xosligi, ayrichaligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, shoир mazkur san'at orqali lirik qahramon ruhiyatini yorqin ifodalashga erisha olgan. Xususan, uning «Yo’lovchi» she'rida bola ko‘zining «qop-qora charos», «oy nurida yakka shudring dona»ga yoki boqishining «bahor» yoki «nishona»ga o‘xhatilishi bola tabiatini, go‘zalligini, beg‘ubor va murg‘akligini ochishga xizmat qilish barobarida lirik qahramon (shoir)ning unga bo‘lgan otalarcha cheksiz mehr-muhabbatini ham ifodalab keladi.

Shavkat Rahmon o‘z ijodida jonlantirish san'atining chiroylı namunalarini yaratdi va ular orqali ruhiy olam qirralarini kashf etdi. Shoир yurak zarblarini, uning aks-sadosi zambarakdek gumburlashini tasvirlar ekan, shu orqali uni lirik qahramon ruhiyatidagi ezgu tuyg‘ularni ifodalashga xizmat qildiradi. Lirik qahramon (shoir) uchun sezgalarning asosiysi tuyg‘udir. Shoир tuyg‘ulari esa faqat shodlik va gullarning lablari bilan o‘pishgandir. Shu bois bunday yuksak tuyg‘ular yurak zarblarining zambarakdek gumburlashi bilan o‘zaro uyg‘un. Shoир mahorati ham yurak va tuyg‘uning uyg‘unligini poetik tarzda, obrazli ifodalar bilan tasvirlay olishida ko‘rinadi.

ИҚТИБОСЛАР/SNOSKI/REFERENCES

1. N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati. –Toshkent, “Fan”, 2007. 196-bet.
2. Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent, „Sharq“, 1995. 12-bet.
3. Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 370 б.
4. Улугов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2018. – 308 б.
5. Умурев Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 252 б.
6. Умурев Ҳ. Тирик шеърлар поэтикаси. – Тошкент: Наврӯз, 2015. – 128 б.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 10-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-1, НОМЕР-10

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-1, ISSUE-10

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz